TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 25-oktabr | 298-10-212-Q/24 | Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 11 oktabrdagi 705-10-0-Q/24-sonli qarorini ijrosi haqida

Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 11 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-sentabrdagi PF-149-son farmonining ijrosi to‘g‘risida”gi 705-10-0-Q/24-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6- 25 - moddalariga asosan, **qaror qilaman:**

1. Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 11 oktabrdagi 705-10-0-Q/24-sonli qaror**i** rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Farmon bilan quydagilar belgilanganligi inobatga olinsin:

chiqindilar bilan bog‘liq xizmatlarni tadbirkorlarga berish yuzasidan o‘tkaziladigan tender jarayonini onlayn kuzatish imkoniyatini yaratish;

sanitar tozalash korxonalari tomonidan chiqindi to‘plash shoxobchalariga videokuzatuv kameralarini o‘rnatish va shoxobchalar faoliyatini aholi tomonidan kuzatish imkoniyatini yaratish;

chiqindilarni tashish bilan shug‘ullanuvchi barcha maxsus texnikalarga sanitar tozalash korxonalari mablag‘lari hisobidan onlayn kuzatuv (GPS) tizimini o‘rnatish hamda mazkur texnikalarni kuzatish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar uchun oylik to‘lovlarni markazlashgan holda amalga oshirish va bu orqali chiqindilarning belgilangan grafik va muddatlarga muvofiq olib chiqib ketilishini kuzatish imkoniyatini yaratish;

sanitar tozalash korxonalari xizmat ko‘rsatuvchi hududlarning geografik chegarasi hamda aholi va yuridik shaxslarga biriktirilgan chiqindilarni yig‘ish maydonchalari (konteyner) joylashuvi to‘g‘risida aniq ma’lumotlar berish;

abonentlarning hosil bo‘lgan chiqindilarini olib chiqib ketish grafigini ko‘rsatish;

Viloyatlar hokimliklari:

qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish xizmatlari yuzasidan buyurtmachi vazifasini bajarishi;

qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish xizmatlari bo‘yicha hududlarni sanitar tozalash korxonalariga belgilangan tartibda biriktirib
berishi;

obodonlashtirish obyektlarida hosil bo‘ladigan chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish bo‘yicha faoliyatni tashkil etishi;

qattiq maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun sharoit yaratib berishi;

o‘z vakolatlari doirasida chiqindilar bilan bog‘liq ishlar sohasida davlat-xususiy sheriklik bo‘yicha faoliyatni amalga oshirishi;

qattiq maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlar amalga oshiriladigan obyektlarni (chiqindilarni yig‘ish shoxobchalarini) tegishli hududga joylashtirish masalalarini hal etishi (xavfli chiqindilar bundan mustasno);

qattiq maishiy chiqindi bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirishga oid mahalliy dasturlarni tasdiqlashi;

hududni sanitariya jihatidan tozalash infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirishi;

d) fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari:

qattiq maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi davlat dasturlari, hududiy va boshqa dasturlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishida ishtirok etishi;

qattiq maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlar amalga oshiriladigan obyektlarni tegishli hududda joylashtirish va ulardan foydalanish masalalarini hal qilishda ishtirok etishi;

qattiq maishiy va qurilish chiqindilari bilan bog‘liq ishlar yuzasidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi.

3. Chiqindilar bilan ishlash masalalarida aholi va sanitar tozalash korxonalari o‘rtasida bog‘lovchi bo‘g‘in sifatida Sanitar tozalash ishlarini tashkil etish respublika markazi negizida amaldagi shtat birliklarini saqlab qolgan holda Vazirlik huzurida davlat muassasasi shaklida Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi (keyingi o‘rinlarda — Agentlik) tashkil etilganligi;

2025-yil 1-martdan boshlab sanitar tozalash korxonalari faoliyatining asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini aniqlash mezonlari 1-ilovaga muvofiq;

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi tizimiga o‘tkazilayotgan tashkilotlar faoliyatini tashkil qilish jadvali 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirigining tuman bo‘limi boshlig‘i B.Eshnazarov belgilansin.

5. Qarorning ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun mas’ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari S.Mirsagatov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **S.Ergashev**